

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI MILLIY IDENTITIKLIGING SHAKLLANISH EVOLYUTSIYASI VA ZAMONAVIY BOSQICI

Husanjon Erkinovich Toshmurodov

Mustaqil tadqiqotchisi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

husanboy3223@gmail.com

 **Annotatsiya:** Ushbu maqolada Markaziy Osiyo davlatlari O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston milliy identikligining shakllanish evolyutsiyasi tarixiy-tahliliy nuqtai nazardan yoritilgan. Tadqiqotda milliy o'zlikni anglash jarayoni to'rt bosqichda tarixiy-etnik ildizlar, mustaqillik davridagi institutsionalashuv va zamonaviy globallashuv-integratsiya bosqichi ko'rib chiqilgan. O'zbekistonlik olimlarning (S. Otamurodov, B. Saparov, I. Xo'jamurodov, Sh. Madayeva, Z. Muminova va boshqalar) ilmiy ishlariga, tayangan holda, milliy va mintaqaviy identiklik o'rtasidagi murakkab munosabatni tahlil qilingan. Tadqiqot davomida milliy o'zlikni mustahkamlash mintaqaviy integratsiyaga to'sqinlik qilmasligi, aksincha, har bir xalqning o'ziga xosligini hurmat qilgan holda amalga oshiriladigan hamkorlik barqaror natija berishi ko'rib chiqilgan. Maqola natijalari milliy identitetni fanlararo yondashuv asosida o'rganish zarurligini asoslaydi.

 **Kalit so'zlar:** milliy identiklik, milliy o'zlikni anglash, Markaziy Osiyo, milliy g'oya, milliy-ma'naviy xavfsizlik, mintaqaviy integratsiya, globallashuv, etnomadaniy identiklik, milliy mentalitet.

 **Abstract:** This article examines the evolution of the formation of the national identity of the Central Asian states—Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, and Turkmenistan—from a historical and analytical perspective. The study explores the process of national self-awareness through four stages: historical and ethnic roots, the institutionalization of national identity during the period of independence, and the contemporary stage of globalization and regional integration. Drawing on the scholarly works of Uzbek researchers, including S. Otamurodov, B. Saparov, I. Xo'jamurodov, Sh. Madayeva, Z. Muminova, and others, the article analyzes the complex relationship between national and regional identity. The study argues that strengthening national identity does not hinder regional integration; rather, cooperation based on mutual respect for the uniqueness of each nation contributes to sustainable outcomes. The

findings substantiate the necessity of studying national identity through an interdisciplinary approach.

 **Keywords:** national identity, national self-awareness, Central Asia, national ideology, national and spiritual security, regional integration, globalization, ethnocultural identity, national mentality.

 **Аннотация:** В данной статье с историко-аналитической точки зрения освещается эволюция формирования национальной идентичности государств Центральной Азии — Узбекистана, Казахстана, Кыргызстана, Таджикистана и Туркменистана. В исследовании процесс формирования национального самосознания рассматривается в четырех этапах: историко-этнические корни, институционализация в период независимости и современный этап глобализации и региональной интеграции. Опираясь на научные труды узбекских ученых (С. Отамуродова, Б. Сапарова, И. Хужамуродова, Ш. Мадаевой, З. Муминовой и др.), автор анализирует сложное взаимодействие между национальной и региональной идентичностью. В ходе исследования показано, что укрепление национального самосознания не препятствует региональной интеграции, а напротив, устойчивое сотрудничество возможно при уважении самобытности каждого народа. Результаты статьи обосновывают необходимость изучения национальной идентичности на основе междисциплинарного подхода.

 **Ключевые слова:** национальная идентичность, национальное самосознание, Центральная Азия, национальная идея, национально-духовная безопасность, региональная интеграция, глобализация, этнокультурная идентичность, национальный менталитет.

Kirish. Mustaqillikning o'ttiz besh yildan ortiq davri mobaynida Markaziy Osiyo davlatlari: O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston - o'z milliy davlatchiligini shakllantirish bilan bir qatorda, jamiyat taraqqiyotining eng murakkab masalalaridan biri - milliy identiklikni (milliy o'zlikni anglashni) barpo etish jarayonini ham boshdan kechirmoqda. Sovet davridan meros qolgan milliy-hududiy chegaralanish tizimi, ko'p millatli va ko'p madaniyatli ijtimoiy tuzilma, globallashtirish sharoitida madaniy unifikatsiya xavfi hamda mintaqaviy integratsiyaga bo'lgan zamonaviy ehtiyoj bularning barchasi Markaziy Osiyo xalqlarining o'zligini anglash jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Milliy identiklik muammosi nafaqat falsafa, sotsiologiya yoki siyosatshunoslik, balki tarix, madaniyatshunoslik va xalqaro munosabatlar fanlari doirasida ham dolzarb tadqiqot ob'ektiga aylangan. Zero, milliy o'zlikni anglash darajasi jamiyatning ichki barqarorligini, uning tashqi ta'sirlarga nisbatan chidamliligini hamda davlatning geosiyosiy mavqegini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi¹. Ayni paytda

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida 2025-yil noyabr oyida bo'lib o'tgan tadbirda ta'kidlanganidek, "identiklik" atamasining o'zi ham fanda hali yakuniy ta'rifga ega emas va bu borada o'zbekistonlik mutaxassislar orasida ham turlicha yondashuvlar mavjud².

Ushbu maqolada Markaziy Osiyo davlatlari milliy identikligining shakllanish evolyutsiyasi undan tarixiy-etnik ildizlar, sovet davridagi milliy-hududiy chegaralanish siyosati, mustaqillik yillaridagi milliy o'zlikni anglash siyosati va nihoyat, zamonaviy bosqichda kuzatilayotgan mintaqaviy identiklik tendensiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda asosan o'zbek olimlarining ilmiy ishlariga, shuningdek rasmiy davlat hujjatlari va tegishli ilmiy nashrlarga tayaniladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Ushbu maqola tavsifiy-tahliliy va tarixiy-qiyosiy metodologiyaga asoslanadi. Materiallarni to'plash va tahlil qilishda quyidagi yondashuvlardan foydalanildi: Manbalarni tanlash tamoyili: tadqiqotda asosan o'zbekistonlik olimlarning (S.Otamurodov, B. Saparov, I. Xo'jamurodov, Sh. Madayeva, Z.Muminova, I.Jabborov va boshqalar) monografiyalari, dissertatsiyalari va ilmiy maqolalari birlamchi manba sifatida tanlab olindi.

Tarixiy-davrlashtirish metodi: milliy identiklik evolyutsiyasini tahlil qilish uchun jarayon to'rt shartli bosqichga bo'lib o'rganildi: 1)tarixiy-etnik ildizlar davri, 2)sovet davridagi milliy-hududiy chegaralanish bosqichi, 3) mustaqillik davridagi institutsionalashuv bosqichi 4)zamonaviy-globallashuv va mintaqaviy integratsiya bosqichi. Nazariy-konseptual tahlil metodi: "identiklik", "milliy o'zlikni anglash", "milliy-ma'naviy xavfsizlik" kabi tushunchalarning nazariy-metodologik mazmuni o'zbekistonlik faylasuf va sotsiolog olimlarning ishlari asosida aniqlashtirildi. Qiyosiy tahlil metodi: Markaziy Osiyo davlatlarining (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston) milliy o'zlikni ifodalash strategiyalari o'zaro qiyoslandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning metodologik asosini tavsifiy-tahliliy, tarixiy-qiyosiy hamda konseptual-germenevtik yondashuvlarning uyg'unlashtirilgan qo'llanilishi tashkil etadi. Tadqiqot predmeti Markaziy Osiyo davlatlari milliy identikligining tarixiy shakllanish jarayoni hisoblanadi. Statistik-miqdoriy emas, balki tarixiy-mazmuniy tahlilni taqozo etganligi sababli, maqolada birlamchi va ikkilamchi matnli manbalarni tizimli o'rganishga asoslangan tahliliy metod yetakchi tadqiqot usuli sifatida tanlab olindi.

Tahlil va natijalar. Milliy identiklik tushunchasining nazariy-metodologik asoslari "Identiklik" ("identity") atamasi lotincha "idem", ya'ni "xuddi o'zi" so'zidan olingan bo'lib, biror obyektning turli o'zgarishlarga qaramay o'zligini saqlab qolish xususiyatini anglatadi³. Inson tug'ilishi va ulg'ayib borishi jarayonida unda ijtimoiy, diniy hamda milliy dunyoqarash rivojlanadi, natijada uning madaniy aynanligi — identikligi shakllanadi. Shu bilan birga, inson qaysi madaniy identiklikni qabul qilishi ko'proq individual tanlov bo'lsa-da, uning namoyon bo'lishi jamiyat va millat darajasida amalga oshadi⁴

O'zbekistonlik faylasuf S. Otamurodov o'z tadqiqotlarida millat va milliy o'zlik masalasini globallashuv jarayonlari chuqur tahlil qilgan. Uning fikricha, globallashuv sharoitida milliy-ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash, ya'ni xalqning o'z tarixiy-madaniy

asoslarini saqlab qolishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanishi zarur⁵. Olim, shuningdek, globallashuvning millatlar taqdiriga ko'rsatadigan ta'sirini siyosiy-falsafiy jihatdan tahlil qilar ekan, milliy o'zlikni anglashning tarixiy va zamonaviy shakllari o'rtasidagi uzviylikka alohida urg'u beradi⁶

Milliy o'zlikni anglash tuzilmasi bo'yicha I. Xo'jamurodov va B. Saparovning tadqiqotlarida ushbu hodisaning tuzilmaviy-funksional tahlili berilgan. Ularning fikricha, milliy o'zlikni anglash etnogenez, ijtimoiy-tarixiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy jarayonlar tizimida shakllanadi va u doimiy ravishda emas, balki ko'proq tarixiy burilish nuqtalarida masalan, Vatanni tashqi xavf-xatardan himoya qilish, ijtimoiy adolatni tiklash yoki tabiiy ofatlarga qarshi kurashish kabi vaziyatlarda millatni harakatga keltiruvchi kuch sifatida yaqqol namoyon bo'ladi⁷. B. Saparovning falsafa fanlari bo'yicha falsafa oktorligi dissertatsiyasida esa milliy g'oya tizimida milliy o'zlikni anglashning tuzilmaviy-funksional tahlili alohida ilmiy ob'ekt sifatida o'rganilgan⁸

Milliy mentalitet masalasi Sh. Madayevaning tadqiqotida XX asr saboqlari va XXI asr istiqbollari nuqtai nazaridan yoritilgan bo'lib, muallif milliy mentalitetning demokratik tafakkur bilan uyg'unlashuvi jarayonini tahlil qiladi⁹. Bundan tashqari, Z. Muminovning ma'naviy borliqni sinergetik yondashuv asosida tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqotimilliy o'zlik masalasini murakkab tizimli hodisa sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi¹⁰

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, milliy identiklik atamasi bilan bog'liq etnik identiklik, ijtimoiy identiklik, guruh identikligi, diniy identiklik, etnomadaniy identiklik kabi tushunchalarning ham fanda hali batafsil va yakuniy ta'riflari ishlab chiqilmagan bu holat nafaqat g'arblik, balki o'zbekistonlik mutaxassislar orasida ham keng tarqalgan muammo sifatida qayd etiladi¹¹. Shunga qaramay, etnomadaniy identiklik jamiyatning birligi va butunligini saqlashda hamda uni boshqa jamiyatlardan farqlovchi ko'zgu vazifasini bajarishi borasida olimlar o'rtasida umumiy kelishuv mavjud¹²

Markaziy Osiyoda milliy identiklik shakllanishining tarixiy ildizlari Markaziy Osiyo xalqlari milliy identikligining shakllanishi bir necha ming yillik tarixiy jarayon natijasidir. Mintaqada qadimdan o'troq va ko'chmanchi turmush tarzi o'zaro chambarchas bog'liq holda rivojlangan. Tarixchi olimlarning ta'kidlashicha, akademik Yu.F. Buryakov o'z tadqiqotlarida Choch (hozirgi Toshkent) vohasining ko'chmanchi va o'troq xalqlarni bog'lab turuvchi hudud bo'lganini aniqlagan¹³. Bu esa mintaqah xalqlarining etnik-madaniy shakllanishida turli qatlamlarning uzviy aralashuvi natijasida yuz berganini ko'rsatadi. 90-yillardan boshlab 2000-yillargacha bo'lgan davrda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida "kim azaldan mavjud" degan masala bo'yicha ilmiy-mafkuraviy tortishuvlar yuzaga keldi. Xususan, Turkmaniston "Ruhnama", Qirg'iziston "Manas", Qozog'iston esa "Ko'chmanchilar" trilogiyasi orqali o'z milliy o'zligini ifodalashga harakat qilgan bo'lsa, O'zbekiston o'troq xalq sifatidagi tarixiy-madaniy merosini isbotlashga intildi¹⁴. Tarixchi olimlar G'. Boboyorov, M. Xatamova va S. Kubayevlar bilan o'tkazilgan suhbatda ta'kidlanganidek, aynan shu davrda har bir davlat o'z milliy narrativini

alohidashakllantirishga urinishi natijasida chorak asr davomida mintaqaviy integratsiya jarayoni sezilarli darajada sekinlashgan¹⁵. Milliy davlatchilik qurilishi masalasini tahlil qilgan tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, ba'zi tarixshunoslik maktablari o'rtasida ham metodologik farqlar mavjud bo'lib, xususan

konstruktivistik yondashuv tarafdorlari bilan an'anaviy tarixshunoslik maktabi vakillari o'rtasida o'zbek etnogenezi davrlashtirilishi masalasida ilmiy bahs-munozaralar davom etmoqda¹⁶

Markaziy Osiyoda zamonaviy ma'nodagi milliy davlat chegaralari 1924-1936-yillarda amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanish siyosati natijasida shakllangan. Ushbu siyosatning sabablari va oqibatlarini o'rgangan tadqiqotchilar orasida Z. Saidov kabi olimlarning ishlarini ko'rsatish mumkin bo'lib, ularda mintaqada amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanish siyosatining sabablari, shuningdek O'zbekiston va Tojikiston respublikalari o'rtasidagi chegaraviy muammolarning sabab-oqibatlari tadqiq etilgan¹⁷

Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilarning asarlarida masalaga bir tomonlama yondashuvlar mavjudligi ham alohida ta'kidlanadi, xususan ayrim mualliflar tomonidan milliy o'zlik ildizlarini faqat bitta xalqqa tegishli deb ko'rsatishga urinish holatlari kuzatiladi¹⁸

Sovet davrida milliy siyosat, bir tomondan, har bir respublikaga o'ziga xos milliy-hududiy maqom berish orqali milliy o'zlikni institutsional jihatdan mustahkamlagan bo'lsa, ikkinchi tomondan, sovet mafkurasi doirasida milliy an'analar, diniy qadriyatlar va tarixiy xotiraning katta qismini siqib chiqarishga harakat qilingan.

Bu borada olib borilgan tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, mafkuraviy bosim va qatag'on davrida milliy adabiyot vakillari Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy kabi ijodkorlarning asarlarida ifodalangan milliy o'zlik va erk g'oyalari cheklangan, biroq ular ramziy va badiiy shakllarda saqlanib qolgan. Xususan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani orqali millat taqdiri, insoniy qadr-qimmat va milliy o'zlik masalalari badiiy vosita orqali xalq ongida yashab kelgan.

Shuningdek, sovet davrida amalga oshirilgan siyosat natijasida ba'zi hollarda tarixiy shaxslar va voqealarga nisbatan bir tomonlama yondashuvlar shakllangan bo'lib, bu holat mustaqillikdan so'ng milliy tarixni qayta tiklash jarayonida muhim metodologik muammolarni keltirib chiqardi.

Ushbu yo'nalishda R.T. Shodiyev va X.S. Ashurovaning "Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" nomli o'quv qo'llanmasi ham muhim ilmiy-uslubiy manba sifatida e'tirof etilgan.

Milliy o'zlikni anglash jarayonida madaniy meros va etnologik tadqiqotlarning o'rni ham katta bo'ldi. I. Jabborovning "Jahon xalqlari etnologiyasi" nomli asarida jahon xalqlari, jumladan Markaziy Osiyo xalqlarining etnik-madaniy xususiyatlari tizimli tarzda tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida etnologiya sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining institutsional jihatdan rivojlanishi, ya'ni qator universitetlarda etnologiyabo'yicha ilmiy markaz va kafedralarning ochilishi ham ushbu fanga bo'lgan e'tiborning ortganidan dalolat beradi.

Ayni paytda milliy o'zlikni anglash siyosatining amaliy natijalarini baholashda ham tanqidiy yondashuvlar mavjud. Xususan, xorijlik tadqiqotchi M. Laruellening Markaziy Osiyoda milliy davlatchilik qurilishi mavzusidagi tadqiqotiga bag'ishlangan sharh-maqolada ta'kidlanishicha, O'zbekistonda milliy davlatchilik qurilishi loyihasi qanday asoslarga tayangani, milliy o'zlikni shakllantirishda qanday narrativlar, ramziy tizimlar va institutlardan foydalanilgani masalasi hamon dolzarb ilmiy muhokama predmeti bo'lib qolmoqda.

Yangi O'zbekiston davrida milliy o'zlikni anglash siyosati yangi mazmun kasb etdi. Prezident Sh. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan g'oyalar davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha jabhalarida o'z aksini topmoqda.

Xususan, mahalliy tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, O'zbekistonning ochiq va pragmatik tashqi siyosati natijasida mintaqaviy diplomatik aloqalar sezilarli darajada barqarorlashdi hamda bu jarayon Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va Shanxay Hamkorlik Tashkiloti kabi mintaqaviy tuzilmalar doirasidagi integratsiya jarayonlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, milliy o'zlikni anglash himoya funksiyasini bajarar ekan, u milliy madaniy qiziqishlarni himoyalash va rivojlantirish, milliy qadriyatlarni ichki yoki tashqi ta'sirlardan asrash, shuningdek tarixiy, diniy va madaniy boyliklarni avloddan-avlodga uzatish vazifalarini o'z ichiga oladi. Milliy tilning rivojlanishi ham milliy ongni yuksaltirishda va millat vakili bo'lgan insonning o'zligini anglashida beqiyos ahamiyatga ega omil sifatida baholanadi,

Xulosa. Milliy identiklik va mintaqaviy identiklik o'rtasidagi munosabat murakkab va ko'p qirrali xarakterga ega. Bir tomondan, har bir Markaziy Osiyo davlati o'z milliy o'zligini mustahkamlashga intiladi, ikkinchi tomondan esa, zamonaviy geosiyosiy va iqtisodiy sharoitlar mintaqaviy darajada hamjihatlikni taqozo etadi. Tadqiqotchilarning fikricha, aynan shu ikki jarayonning muvozanatli olib borilishi Markaziy Osiyo davlatlarining kelajakdagi barqaror taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omil bo'lib qolmoqda.

Bu o'rinda ta'kidlash joizki, milliy o'zlikni anglashning mustahkam bo'lishi mintaqaviy integratsiyaga to'sqinlik qilmasligi, balki aksincha, har bir xalqning o'ziga xosligini hurmat qilgan holda amalga oshiriladigan integratsiya jarayoni ancha barqaror va uzoq muddatli natija berishi mumkinligi haqidagi ilmiy qarashlar tobora keng tarqalmoqda.

Zero, xalqning o'z tarixi, tili, dini va madaniyatiga bo'lgan hurmati saqlanib qolgan

holdagina, u boshqa xalqlar bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlikka kirisha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: O'zbekiston, 2000.
2. Otamurodov S. Globallashuv va millat (siyosiy-falsafiy tahlil). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.

3. Otamurodov S. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik. – Toshkent: O'zbekiston, 2013. – 456 b.
4. Xo'jamurodov I., Saparov B. Milliy g'oya tizimida o'zlikni anglash tuzilmasi (tuzilmaviy-funksional tahlil).
5. Saparov B. Milliy g'oya tizimida milliy o'zlikni anglashning tuzilmaviy-funksional tahlili: Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi.
6. Madayeva Sh.O. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur (XX asr saboqlari va XXI asr istiqbollari). – Toshkent: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2007.
7. Muminova Z. Ma'naviy borliqning sinergetik tahlili. – Samarqand: Zarafshon, 2016.
8. Jabborov I. Jahon xalqlari etnologiyasi. – Toshkent, 2005.
9. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: O'zbekiston, 2024.
10. Shodiyev R.T., Ashurova X.S. Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2018.
11. Boboyorov G'., Xatamova M., Kubayev S. O'zbek xalqining milliy identifikatsiyasi (suhbat) // Daryo.uz, 2024-yil 5-mart.
12. Mirshoxidova Z.J. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlari tarixi (1991-2025) // Modern Science and Research jurnali, 2025.
13. Yangi Markaziy Osiyoning mintaqaviy o'ziga xosligi va xalqaro huquqiy subyektligi//O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi rasmiy sayti (parliament.gov.uz), 2025-yil noyabr.
14. Markaziy periferiyalar: O'rta Osiyoda milliy davlatchilik (Marlen Laruelle tadqiqotiga bag'ishlangan sharh-maqola) // "Tarjima va Tanqid" nashri, 2024-yil 12-oktabr.
15. Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari: xalqaro ilmiy konferensiya materiallari (2023-yil 11-12-dekabr) / Muharrirlar: Z. Abdirashidov, B. Irzayev, D. Jamalova, A. Daniyarov, A. Fozilov. – Toshkent: Yosh kuch, 2024.
16. Milliy o'zlik g'oyasi haqida // Anhor.uz tahliliy nashri, 2025-yil aprel.